

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLANISHI

Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlanishini normativ huquqiy hujjatlarda e’tirof etilishi hamda buni jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirish, shuningdek, bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘rni haqida fikrlar yoritiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarda inson huquqlarining oliy qadriyat ekanligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Inson huquqlari, erkinliklar, demokratik davlat, konstitutsiya, jamoatchilik nazorati, milliy-etnik muammolar, normativ huquqiy hujjatlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari, implementatsiya, milliy huquqiy tizim.*

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro huquq va O‘zbekiston milliy qonunchilik tizimida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda kafolatlash dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda diniy va milliy-etnik muammolarni yuzaga kelishini, ijtimoiy notenglik masalasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ixtiloflarni va huquqiy diskriminatsiya holatlarini oldini olishga yordam beradi.

O‘zbekistonda hamda jahon hamjamiyatida inson huquqlarini ta’minlashda huquqiy tartibotning turli yo‘llari, xususan, profilaktika ishlaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Bunga keng jamoatchilik vakillari jalb qilingan bo‘lib, doimiy faoliyat olib bormoqda.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash huquqiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bob 19-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”¹. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida ham inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari alohida qayd etib o‘tiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham inson huquq va erkinliklari haqida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz 18-moddani xalqaro huquqiy hujjatlarda han e’tirof etilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”².

Xalqaro miqyosda ham inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ushbu huquqiy hujjatlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish asnosida milliy qonun hujjatlarimizni xalqaro andozalarga javob beradigan darajaga yetkazildi va bu faoliyat yana davom etmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki, xalqaro shartnomalarni milliy qonunchilikka joriy etishning bugungi holati, shuningdek ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqib, mazkur tizimni yanada takomillashuviga sabab bo‘luvchi yangi vositalarni aniqlashdir.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro inson huquq va erkinliklariga oid asosiy hujjatlarga qo‘shilishi bilan, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilib borilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘nggi yillar davomida fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun mustahkam qonunchilik bazasini yaratishga qaratilgan 5000 dan ortiq normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi³.

Binobarin, 2018-yil 13-apreldan boshlab kuchga kirgan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun asosida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlanishi borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

“Jamoatchilik nazorati ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o‘zaro mas’uliyat va javobgarlikka xizmat qiladi. Mazkur institut yurtimizda insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlangani, balki davlat organlari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston” 2023-yil.

² Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1-modda. <https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>

³ О.И.Жабборовва. “Янги Ўзбекистон: демократия ва инсон ҳуқуқлари”//Scientific progress, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 789-796.

<https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-demokratiya-va-inson-u-u-lari> (дата обращения: 05.10.2023).

ekanligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi"¹.

Jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yilishi natijasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga nisbatan bo'lgan munosabat kun sayin yaxshilanib bordi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyulda qabul qilingan "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida barcha toifadagi davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Ushbu kengashlarning tashkil etilishi natijasida davlat boshqaruvi organlari va jamoat birlashmalari faoliyatida nazorat instituti yuzaga keldi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham bir qator islohotlar belgilab qo'yildi. Masalan taraqqiyot strategiyasining 1-yo'nalishida ham "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" belgilab qo'yilgan bo'lib, unda quyidagi maqsadlar tilga olinadi:

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish.

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

4-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish.

5-maqsad: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

7-maqsad: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

8-maqsad: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash.

9-maqsad: "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokraziyani bartaraf etish. 10-maqsad: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

11-maqsad: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

¹ Z.M.Ibragimova, "Jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari"//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 4, 2022, pp. 703-710.

12-maqсад: Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish¹.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlar asosida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning yorqin tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasidagi o'zgarishlarga to'xtalib o'tdi². Shavkat Mirziyoyev tomonidan so'zlagan nutq sessiyada ishtirok etayotgan davlat rahbarlari hamda jahon hamjamiyati vakillari tomonidan e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi³", - deya ta'kidlagan edi.

XULOSA

Xulosa o'rmida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston konstitutsiyasi, normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek xalqaro huquqiy hujjatlarda inson huquq va erkinliklari himoyasi haqida fikrlar yuritilgan bo'lib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida tashkil etilgan tuzilmalar bu masalalar bo'yicha amaliy ishlar tashkil etilgan. Shu o'rinda prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirish mumkin: "Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda".

¹ PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (lex.uz)

² Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бosh Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади (president.uz)

³ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston", 2018. 2-tom, 4-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2023-y. [//https://lex.uz](https://lex.uz)
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. [Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi \(constitution.uz\)](http://constitution.uz)
3. [PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida \(lex.uz\)](http://lex.uz)
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: “O‘zbekiston”, 2018. 2-tom, 4-bet.
5. [Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади \(president.uz\)](http://president.uz)
6. О.И.Жабборова. “Янги Ўзбекистон: демократия ва инсон ҳуқуқлари”//Scientific progress, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 789-796. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-demokratiya-va-inson-u-u-lari> (дата обращения: 05.10.2023).
7. Z.M.Ibragimova, "Jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari"//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 4, 2022, pp. 703-710.
8. [Overview of the Human Rights Framework – International Justice Resource Center \(ijrcenter.org\)](http://ijrcenter.org)